

**BOSHLANG‘ICH SINF MAKTAB DARSLIKLARIDA QO‘LLANILADIGAN INGLIZ
TILIDAN O‘ZLASHMA SO‘ZLAR TAHLILI**

Gadoyeva Dilnoza Abdurasulovna

Buxoro viloyati Zarmed universiteti talabasi,

168-sonli maktabgacha ta’lim muassasi tarbiyachisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1494116>

Annotation. Mazkur ilmiy maqoladan ko‘zlangan maqsad, ingliz tilidan kirib kelgan boshlang‘ich sinf ona tili darsliklaridagi bir nechta so‘zlarning qo‘llanishini tahlil qilishdan iboratdir. Bu so‘zlarni o‘rganishdan maqsad ingliz tilidagi fonetik va mazmuniy qo‘llanish bilan bog‘liqligini kuzatishdir. Kichik tadqiqotimiz ingliz tilini endi o‘rganmoqchi bo‘lgan yoshlarimizga ko‘makchi bo‘ladi. Bunda o‘zbek tilidagi inglizcha neologizmlarning asli va hozirgi qo‘llanish doirasi ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: olinma so‘zlar, neologizm, o‘zlashma so‘zlar, futbol, gol, humor, nokdaun, miting, menejment, trening, prodyuser, affikslar.

Abstract. The purpose of this scientific article is to analyze the use of several words in the elementary school native language textbooks that have entered from the English language. The purpose of studying these words is to observe their connection with phonetic and meaningful use in English. Our small research will help our young people who want to learn English. The origin of English neologisms in the Uzbek language and the scope of their current use will also be revealed.

Key words: loanwords, neologism, borrowed words, football, goal, humor, knockdown, rally, management, training, producer, affixes.

Аннотация. Целью данной научной статьи является анализ употребления в учебниках родного языка начальной школы ряда слов, пришедших из английского языка.

Цель изучения этих слов — проследить их связь с фонетическим и смысловым употреблением в английском языке. Наше небольшое исследование поможет нашим молодым людям, желающим выучить английский язык. Также будет раскрыто происхождение английских неологизмов в узбекском языке и сфера их современного использования.

Ключевые слова: заимствованные слова, неологизмы, заимствованные слова, футбол, гол, юмор, нокдаун, розыгрыши, менеджмент, тренировка, продюсер, аффиксы.

Hozirgi ingliz tiliga bo‘lgan qiziqish va intilishlar yuqori bo‘lgan bir paytda, ko‘pgina inglizcha so‘zlar lug‘atimizga o‘zlashib, muloqotda tez o‘z aksini topmoqda.

Masalan: cow-boy, xot-dog, cocktail, mikser, pleyer, trolleybus, menejment, miting, provayder, nokdaun va hokazolardir. Bunday so‘zlar boshlang‘ich sinf darsliklarida 20 tadan ortiq bo‘lib, keling bularni bir nechtasini tahlil qilib ko‘ramiz: *menejment (management)*- maxsus boshqarish faoliyati, boshqarish tog`risidagi fan; *miting (meeting)* - biror muhim voqeaga, ko‘pincha siyosiy masalalarni muhokama etishga bag`ishlangan ommaviy yig`in; *nokdaun (knockdown)*- boksda raqibining kuchli zarbasidan bokschining garangsib, o‘z harakatlarini boshqara olmay qolishi va bir necha soniya jang qila olmasligi; *chat (chat)*- suhbat; *yumor (yumor)*- xumor- xulq, fe’l-atvor, kayfiyat, voqeani hazilomus tasvirlash; *tennis (tennis)* – raketa va to‘p bilan o‘ynaladigan sport o‘yini; *kompyuter (computer)*-so‘zi inglizcha “compyutare”- hisoblash, hisob-kitob qilish degan ma’noni anglatadi, *pianino (pianino)*- inglizcha “pianino”- yumshoq past ovozli, degan ma’noni anglatadi, klavishli musiqa asbobi; *seminar (seminar)*-ta’lim berish yoki o‘rganish uchun mo‘ljallangan yig‘ilish; *kurs (kurs)*-uzun davom etadigan o‘quv yoki o‘rgatish jarayoni; *test (test)*-sinov tekshirish yoki baholash; *prodyuser (producer)* – rivojlangan mamlakatlarda film ishlashda g‘oyaviy, badiiy, tashkiliy, moliyaviy jihatdan amalga oshiruvchi kino kompaniyaning ishongan kishisi; *kofe (coffee)* – ingliz tilidagi ushbu so‘z italyan tilidagi turkcha qahva (kahve) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, coffee so‘zidan kirib kelgan. Turklar esa bu so‘zni arablarning qahva so‘zidan olishgan. *Apelsin (orange)* – apelsinlar Fransiyaga un norenge, keyinroq zamonaviy fransuz tilida une norenge, keyinroq zamonaviy fransuz tiliga une orange bo‘lib o‘tgan. So‘zga inglizlar bu so‘zni fransuz tilida oranj (orange) shaklida qabul qilishgan. *Matrats (ko‘rpa-mattress)* – uy jihozlari haqida shuni aytish kerakki, yevropaliklar hamma vaqt ham katta, yumshoq yostuqli yotoqlarda uxmlamaganlar. Har qanday roman tillar oilasiga kiruvchi so‘zlarning taxminan 70% qadimgi ingliz tilidan olingan. Ushbu maqolada ingliz tiliga xorijiy tillarda kirib kelgan so‘zlarning yasalishi haqida ma’lumotlar ochiqlanadi. Chetdan kirib kelgan so‘zlar yoki boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlar, ona tiliga boshqa manbaalardan qabul qilingan so‘zlar olinma so‘zlardir. Bunday so‘zlar, jumladan, aynan ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar bugungi kunda deyarli bolalar nutqini boshidanoq shakllantirdi, chunki so‘zlar klassik tillardan qabul qilingan. Ayrim so‘zlar nutqning qismlarini o‘zgartirish orqali hosil bo‘ladi. Yana boshqalar uni turli qismlarini birlashtirib, yangi so‘zlarni yaratadilar. Ular neologizmlar deb ataladi. Neologizmlar bir necha manbaalardan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan so‘zlardir. Ba’zan ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar aylanma yo‘llar bilan sodir bo‘lgan, masalan, orange so‘zi sanskritcha naranj, naranga, narangaphalam yoki naragga so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, ingliz tilida naranj sifatida kirib, narangega aylangan, keyin esa naranjga o‘zgargan, arange va nihoyat orange, garbage so‘zi ingliz tiliga lotin tilidan kirib kelgan.

Ko‘plab inglizcha so‘zlar boshqa mamlakatlar tomonidan ham qabul qilingan. Biroq ingliz tilidagi mumkin bo‘lgan affikslarning xilma-xilligi va soni ba’zi chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, otni sifatga aylantirish kabi asosiy narsa uchun yagona standart narsa yo‘q. (-able, -al, -ous va -y imkoniyatlarning ba‘zilari). Kamida 9 xil prefikslari (-a, -anti, -dis, -il, -im-in, -ir, -non va -un) mavjud bo‘lib, ona tili bo‘lmagan so‘zlovchining taxmin qilishi deyarli mumkin emas.

Ingliz Uyg`onish va Sanoat inqilobi davrida yunon va lotin tillarining klassik elementlarini o‘zlashtirganlar (masalan, fotosurat, telefon va boshqalar), bu o‘zlashtirishlar buungi kunda ham davom etmoqda. Ingliz tili ilmiy texnik leksikasining katta qismini ana shunday klassik birikmalar tashkil qiladi.

Odamlarning so‘zlardan foydalanish usullari ularning madaniyati haqida ko‘p narsalarni aytib beradi. Naturalizatsiya nashr etilgan tadqiqotlar va tadqiqotlar uchun ingliz tiliga o‘xshash tarjimalarni bajarishda qo‘llaniladi. Xuddi shunday inglizcha so‘z uning ma’nosini qisqacha tushuntirish bilan birga saqlanib qoladi. Neologizmlarni tarjima qilishda to‘rtta tarjima usuliga e’tibor beriladi: qarz tarjimasi, analoglardan foydalanish, transkripsiya va transliteratsiya.

Ingliz tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarni o‘zbek tilidagi muqobillarni topishda turli xil qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ingliz tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlarning muqobillarini ayrimlari so‘z birikmasi shaklida bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari ingliz tiliga uncle, aunt so‘zlarning o‘zbek tilidagi muqobillarini topish ham bir muncha muammolidir.

Masalan: his aunt Polly was angry for a moment, and the Started to laugh. Bu gapda “aunt” so‘zining o‘zbek tilidagi muqobili ham “amma” ham “xola” so‘zlariga to‘g’ri keladi. Uncle so‘zi ham shunday so‘zning “tog‘a” va “amaki” so‘zlariga tog‘ri keladi. Ingliz tilining tarixiy taraqqiyoti ingliz xalqi tarixi bilan uzviy bog‘liq. So‘zlarning ehtimologik jihatdan o‘rganilishi esa tarjima jarayonida so‘zlarning mazmuni (muqobillarini) o‘sha davr madaniyatiga, turmushiga mos ravishda talqin etishga ko‘mak beradi.

Shu bilan birgalikda boshlang‘ich sinf darsliklarida ham o‘zlashgan so‘zlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, ona tili 4-sinf, II-qism darsligida berilgan she’rni tahlil qilsak:

To‘p, to‘p, to‘p, to‘p

Futbolchilar tepar to‘p

Darvozabon xo‘p shoshar

Ishqibozlar qarashar.

Ana gol bo‘ldi

Hisob bir-u nol bo‘ldi.

“G‘uncha” dan

Bu yerda keltirilgan “Futbol” so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “foot” –oyoq, “bol” – to‘p degan ma’noni anglatadi.

Shu rasmlar orasida kofe so‘zi e’tiborimni tortdi va kofe so‘zi uzoq o‘tmishga bog’liqligi va uni o‘zlashtirilgan so‘zlar qatoriga kiritilganini bildim. Bu o‘rganganimni o‘z faoliyatim davomida o‘quvchilarga ham aytib o‘tishni joiz deb bildim.

Shunday holatlardan yana biri 3-sinf ona tili II qism 53-mashqda rasm tasvirlangan, unda fermerni ko‘rishimiz mumkin.

Fermer so‘zi ham o‘zlashtirilgan so‘zlar qatoriga kiradi.

O‘zlashgan so‘zlardan yana biri 1-sinf I qism 12-darsda berilgan jirafa so‘zidir. Bu yerda jirafa haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchilar jirafa haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari bilan bir qatorda, bu so‘z o‘zlashgan so‘z bo‘lib, giraffe deb yozilishi, jirafa deb talaffuz qilinishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak.

Xulosa: Boshlang‘ich sinf maktab darsliklarida ingliz tilidan olingan o‘zlashma so‘zlar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Bu so‘zlar o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalar sport, madaniyat va boshqa sohalarda yangi bilimlarni o‘rganishda yordam beradi.

Inglizcha o‘zlashmalar o‘quvchilarning global dunyo qarashini kengaytiradi, til boyligini oshiradi va ularning ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. O‘quvchilarga ingliz tilidan kirgan so‘zlarni to‘g‘ri ishlatish va tushunish orqali, ularning kommunikativ va akademik ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Demak, biz darsliklarda uchragan shunday o‘zlashtirma so‘zlarni, kelib chiqishini o‘quvchiga to‘liq yetkazib berishimiz kerak deb o‘yayman. Endilikda, boshlang‘ich sinf darsliklarida yana ham aniqrog‘i ona tili darsliklarida keltirilgan matn, suratlarga ko‘proq e’tibor qaratib, ular orasida o‘zlashgan so‘zlar bo‘lsa, o‘quvchilarga chuqurroq tushuncha berib borishimiz lozim deb o‘yayman. Men kelajakda o‘z o‘quvchilarimga darslikda uchragan har bir o‘zlashma so‘z haqida tushuncha berishga harakat qilaman.

REFERENCES

1. Toshkent, O‘zbekiston E-mail: carjisor @ carjis.org.
2. Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumanidagi o‘qituvchi X.Gulnoza To‘lqinovna.
3. Zamin. uz 23-noyabr 2018-yil Azamat Akbarov.
4. Namangan Davlat Universiteti pedagogi Bahromjon Tolibjonov.
5. D.D. Boynazarova, M.E. Toirova- ona tili 4-sinf II-qism, Toshkent-2023.

2025

FEBRUARY

NEW RENAISSANCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

VOLUME 2 | ISSUE 2

6. D.D. Boynazarova- ona tili 4-sinf III-qism, Toshkent- 2023.
7. S.Kuranov- ona tili 2-sinf II-qism, Toshkent- 2023.
8. D.Boynazarova- ona tili 3-sinf II-qism, Toshkent- 2023.